

HAYOT – HOVONCHA

Ko‘charova Dildora Karim qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Boshlang‘ich ta‘lim va sport tarbiyaviy ishi yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisda Erkin A‘zamning “Ступка” hikoyasi tahlil qilindi. Undagi so‘z o‘yinlari tahlil ostiga olindi. Asardagi ayol obrazining ichki dunyosi va uning dardlari birgina so‘z kuchi bilan ko‘rsatib berilgani tahlil etildi.

Kalit so‘zlar: Ступка, уступка, hovoncha, Marina, farzand, eldosh.

O‘zbek adabiyotshunosligida hikoyachilikda mohir usta sifatida Abdulla Qahhorni barchamiz tan olamiz va hurmat qilamiz. Undan hikoyachilik sir-sinoatlarini, so‘z qo‘llash san‘atini o‘rganishga hamisha ehtiyoj sezamiz. A. Qahhordan so‘ng Surxon farzandi, o‘z asarlari orqali o‘zbek adabiyotiga Surxon tabiatini, hayvonot olamini, mard va tanti surxonliklar xarakterini olib kirgan Shukur Xolmirzayev ham mohir hikoyanavis sifatida e‘tirof etiladi. Hikoya hajman kichik janr bo‘lsa-da, uning katta kuchidan to‘g‘ri foydalana olgan adiblarimiz ham bor. Ular o‘z asarlari bilan o‘zbek hikoyachiligini yangi bir bosqichga olib chiqishgan. Shunday mohir ijodkorlardan biri A. Qahhor va Sh. Xolmirzayevlar sabog‘ini olgan, ular suhbatidan va asarlaridan katta tajriba orttirgan adib Erkin A‘zamdur. U adabiyotga dastlab o‘z hikoyalari bilan kirib kelgan. U boshqa adabiyiy janrlarda ham juda sarmahsul ijodkor bo‘lishiga qaramay uning nomi qissa va hikoyalari vositasida ko‘proq eslanadi. “Erkin A‘zam o‘z ijodini hikoyachilikdan boshlagan bo‘lib, bugunga qadar uning 40 dan ortiq hikoyalari e‘lon qilindi. Adibning “Anoyining jaydari olmasi”, “Piyoda”, “Sovuq”, “Yozuvchi”, “Aralashqo‘rg‘on”, “Ступка” kabi hikoyalari o‘zbek hikoyanavisligining alohida sahifasini tashkil etadi”.¹ Ijodkor hikoyachilikda ham katta ijodiy xazinaga ega. Biz kichik tadqiqotimizda uning “Ступка” hikoyasini tahlil etamiz. Asar qahramoni o‘z yurtidan o‘zga yurtga kelib, shu joylarda qolib ketishga majbur bo‘lgan Marina “yangamiz”dir. Hikoya nomini o‘qiganda dastlab hech nimani tushunmaymiz. Ayniqsa, rus tilidan xabari bo‘lmagan kishida bunday holat yaqqol kuzatiladi. Bu hikoya ham Erkin A‘zamning asarlarida ayol obrazri bosh qahramon qilib olingan asarlaridan biridir.

“Erkin A‘zam “Guli-guli” qissasida, “Ступка” hikoyasida, “Shovqin” romanida xorijdan kelgan ayollar qismatiga alohida e‘tibor qaratadi. O‘zbekona hayot tarziga ularning ko‘zi bilan, ularning hayot tarziga o‘zbekona nigoh bilan qaraydi. Yaxshi-yomon, ijobiy-salbiy bu obrazlar xayoliy yoki yozuvchi fantaziyasining mahsuli emas.

Yozuvchi bu to‘g‘rida “Parijdan qo‘ng‘iroq bo‘lguncha va bo‘lgach” adabiy suhbatida batafsil to‘xtaladi. O‘tgan asrning 60-70-yillari Rossiya va Ukraina pedbilim dargohlarini bitirgan ko‘plab yosh-yalang O‘zbekistonga ishga yo‘llanib, olis-olis qishloqlarda rus tili va adabiyotidan dars berganligi hayotiy haqiqat. Shuningdek, armiyaga ketgan ko‘pgina o‘zbek yigitlarining o‘sha yerdan uylanib qaytganligini ko‘p bora eshitganmiz. Yozuvchining badiiy mahorati tufayli ana shu tarixiy haqiqat jozibali badiiy haqiqatga aylantiriladi. Yozuvchining mahorati, bir tomondan, real hayotdagi yangilikni ko‘ra olishi va uni adabiy vositalar bilan tahlil eta olish san‘ati bo‘lsa, ikkinchi tomondan san‘atning sirlarini chuqur o‘zlashtira olganligida namoyon bo‘ladi. Shu ikki asos birlashib, hayotning katta haqiqati o‘zining tugal va go‘zal ifodasini topadi”.² Bizning qahramonimiz Marina ham o‘zbeklarga rus tilidan saboq berish uchun kelgan edi. Boshida hayoti yaxshi edi. U akamiz Arslon bilan sevishib qolib unga turmushga chiqdi. Taqdir ularga farzand deb atalmish ne‘matni ravo ko‘rmadi. Ular kelishib bir qizchani asrab olishdi. Ammo u ham oqibatsiz farzand chiqdi. Ota-onasini tashlab bir erkak bilan Samaraga ketvordi. Shu o‘rinda hikoyadagi bir o‘ringa e‘tibor

¹ Обид Шофиев Букаламунинг бахоналари, “Жаҳон адабиёти” журнали, 2016-йил №12

² Qobulova N. Qahramon xarakterini yoritishda biografik metodning roli. Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti 2019/2 (74)161

qaratishni lozim topdik. Arslon akamizning xonasida plakatnamo bir surat borligi-yu, hikoyachi uni so‘rab borganida jonimni so‘ra, ammo bu suratni so‘rama deydi. Suratda nima tasvirlangan edi: “...Chamasi, mingminglab nusxada tarqalgan plakatsimon bir tasvir-da. Bir yoni pushtinamo allaqanday yirik shaftoli, ko‘kmak butog‘i tikkayib turibdi. Shuni uchdami-to‘rtta qipyalang‘och, qiyiqko‘z mitti bolakay xuddi koptok misol qayoqqadir dumalatib ketayotir. Yonboshida xitoychami, tikka tushgan bir yozuv, xolos”.³ Arslon aka nega aynan shu suratni bo‘ydoqlik vaqtlaridan boshlab xonasida saqlab keldi va uni qadrdon insoniga ham sovg‘a qilishni xohlamadi? Demak, u bepust bo‘lib qolganligini avvaldan sezgan degan xulosa qilishimiz mumkin. U bolalarni sevgan va armon bilan armonsiz dunyoga rixlat qilgan. Marina opa qo‘shnilarnikiga ham gurungga tez-tez chiqib turadi. Ularning ishlariga qarashadi. Ovqat vaqti bo‘lganda biror bahona bilan u yerdan ketib qoladi va u yerga qaytib qadam bosmaslikni niyat qiladi. U tez-tez yo‘qlab turadigan bitta odam bor – Lena. Bu ayol ham bir vaqtlari Marina bilan ishlash uchun kelib mahalliy erkakka turmushga chiqib bola-chaqali bo‘lib ketgan juvonlardan biri. Muallima yangamizni uning oldiga doim eldoshlik tuyg‘usi boshlab boradi. Yangamiz dugonasi serfarzand bo‘lgani uchun sovg‘alarga to‘lib boradi. Eldoshlar birga o‘tirib choy ichishadi. Yangamiz Lenaning eriga deb olib borgan ichimlikni ham o‘zlari baham ko‘radilar va mezbon kofe damlamoqchi bo‘lib kofesiga qarasa maydalanmagan kofe ekan. Kofeni maydalash uchun hovoncha qidira boshlaydi. Marina yangamiz va Lenalar o‘zbek odatlariga shunday singib ketaganidan hovonchani o‘z tillarda nima deyilishini eslolmaydilar. Ovqat vaqtida Marina eski odati bo‘yicha turib jo‘nab qoladi. Ammo ich-ichidan sezadiki, bu uyga hali juda ko‘p keladi. Uni o‘zi anglab-anglamagan bir kuch bu yerga kelishga majbur qiladi. Asar nomining “Ступка” deya tanlanishi adibning juda toqirligidan dalolat beradi. Asarning yakuniy qismida, ya‘ni qo‘shni yigit Abdivoy Marina yangamizni Arslon akadan qolgan mototsiklda olib qaytayotganda yiqilib tushishadi. Abdivoy xijolat bo‘lib kechirim so‘raganida:

— Topdim! — deya qichqirib yuboradi shunda yangamiz ilkis boshini ko‘tarib. — Topdim: — ступка, ступка!

— Nima topdingiz? — deb so‘raydi bola anqayib. — уступка? Nima u?

— Уступка emas, kallavaram, ступка! Ступка, bilding? Urib-urib maydalaydigan, ezib-ezg‘ilab tashlaydigan narsa bor-ku, o‘sha. O‘zbekchasini nima deyayotuvdi-ya hali?

— Nimani uradi? Nimani maydalab tashlaydi?

— Nimani bo‘lsayam-da! — deydi ensasi qotib yangamiz. — Masalan, tuyilmagan kofe yo shunga o‘xshash qattiqroq narsalarni. Hatto — odam deganingni ham! — Shu gapi o‘ziga nash‘a qilibmi, u bir zum ma‘yus tortadi. — Sen aytgan “уступка” esa boshqa narsa.

— U nima degani?

— Mana, sen hozir anovi mototsiklni ag‘darib, meni yarador qilding, shundaymi? Endi kechirim so‘rayapsan. Men esa sening qilmishingni kechiryapman. Chunki meni yana u yoq-bu yoqqa mindirib yurishlaring bor! Ana shuni “уступка” deydi, tushundingmi?

— Уступка, уступка, ступка, — deya chaynaladi-yu, baribir hech baloni anglayolmaydi Abdiboy.

— Bu dunyoda уступка qilmasang, ступка ga yem bo‘lasan, ukajon. Mana, shunchasiga ko‘narkan-ku odamzod, — deydi yangamiz ajab bir o‘ychanlik bilan.⁴ O‘zbek millati vakillari uchun rus tilidan o‘zlashgan ko‘p so‘zlar oldidan unli qo‘shib talaffuz qilish odatiy hol. Asar qahramonlaridan biri Abdiboy ham ступка ni уступка deb talaffuz qiladi. Tabiatan o‘ta kuzatuvchan Erkin A‘zam o‘z asaridagi so‘z o‘yini jarayonida xuddi shunday vaziyat yaratgan. Уступка – “voz kechmoq”, “bahridan o‘tmoq”, “kechib yubormoq” degani bo‘lsa, ступка so‘zi ступ asosidan yasalgan bo‘lib, “maydalamoq”, “ezmoq”, “undek tuymoq” degan mazmunni bildiradi (bu ma‘nolar, albatta, konteks va vaziyat bilangina yuzaga chiqadi). Ступка so‘zining o‘zbekcha muqobili esa hovoncha. O‘z yurtidan uzoqlarda ersiz, farzandsiz, qon-qarindoshsiz qolgan Marina ham tushunib yetadiki, agar hayotdagi kichik xatolar, ko‘ngilliksizlar, muammolar bahridan o‘tib, ularga ko‘z yumib yashamasa, hovoncha – hayot hech nimani, hech kimni ayab o‘tirmaydi. Hamma narsani maydalab, ezg‘ilab tashlaydi. Hayot beshafqat. U o‘z ishini bajarishdan to‘xtamaydi. Bir so‘z bilan aytganda qahramonimiz kutilmaganda hayotiy haqiqatni tushunib yetdi va buni hech kim inkor etolmaydi. Inson hamisha yashash uchun kurashmog‘i kerak. Agar u to‘xtasa, hovoncha dastasi– hayot kaltagi tagida yanchilib ketishi hech gap emas.

³ A‘zam E. Yozuvchining bog‘i 117-bet

⁴ A‘zam E. Yozuvchining bog‘i 126-127-betlar

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. A'zam E. Yozuvchining bog'i. Toshkent, "MASHHUR-PRESS" 2019-y. 286 b.
2. Qobulova N. Qahramon xarakterini yoritishda biografik metodning roli. Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti 2019/2 (74)161